

Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asarining milliy pedagogika tarixidagi ahamiyati

Murtozabonu Elyorbek-qizi Sotvoldijanov

Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola Munis Xorazmiyning "Savodi talim" asarining didaktik ahamiyati, mazkuz asar yaratilish sharoiti tahlil qilinadi. Bu asar boshlang'ich savod o'rgatish metodini shakllantirishdagi o'rni va ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashdagi o'rni bundan tashqari milliy pedagogika tarixidagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Munis Xorazmiy, Savodi ta'lim, didaktika, savod o'rgatish, husnixat, boshlang'ich, pedagogika tarixi

The significance of Munis Khorezmi's work "Savodi ta'lim" in the history of national pedagogy

Murtozabonu Elyorbek-kizi Sotvoldijanov

Scientific advisor: M.M.Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the didactic significance of Munis Khorezmi's work "Savodi ta'lim", the conditions for the creation of this work. The role of this work in the formation of the method of primary literacy teaching and its role in ensuring the unity of education and upbringing, as well as its significance in the history of national pedagogy, is highlighted.

Keywords: Munis Khorezmi, Savodi ta'lim, didactics, literacy teaching, calligraphy, primary, history of pedagogy

XIX asrda o'zbek madaniy-ma'rifiy hayotida savodxonlikni oshirish, yoshlarni ilm o'rganishga qiziqtirish va ularni ilm olishga jalb qilish va ta'lim jarayonini yaxshilash yanada ta'limni takomillashtirish masalalari dolzarb masalalardan biri bo'lgan. Ushbu jarayonda Xiva adabiy hayotining yetuk insonlaridan biri bo'lgan Munis Xorazmiy faqat shoir va tarixchi emas, balki pedagog sifatida ham faoliyat yuritgan shoirlardan biridir. Ushbu adibning "Savodi ta'lim" asari o'z davrida maktablarda boshlang'ich savodni o'rgatish jarayonida muhim o'rin tutgan. Bu asar yoshlarni o'qish va yozish savodxonligini oshirishga yordam bergan.

Munis Xorazmiy XIX asr boshlarida Xiva xonligi tarixida o'z o'rniga ega buyuk insonlardan biri - Shermuhammad ibn Avazbiy mirob o'g'li Munis edi. Xorazmiy 1778-yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirot oilasida dunyoga kelgan adib: "Men Munis, Xivada yashovchi yuz toifasidan bo'lgan Amir Eshimbiyning avlodidandirman", deb yozib qoldirgan. Uning bolalik yillari Qiyot qishlog'ida o'tadi va katta bo'lgandan so'ng, Xivadagi madrasalardan birida tahsil oladi va ustoz Sayyid Eshonxo'jadan tahsil oladi. Xorazmiy arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti, bundan tashqari klassik musika va tarix fanlarini chuqur o'zlashtiradi. U mohir hattot bo'lib kufiy, rayhoniyy, xatti shikasta xatlarini ham yaxshi bilgan. Munis Xorazmiy yashagan davrda savod chiqarish jarayoni arab yozuvini o'zlashtirish bilan uzviy bog'langan. Bu jarayon ko'pincha qiyin va ko'p vaqt talab qilgan. Shu sababli savod o'rganishning qulay va tizimli metodi juda ham kerak bo'lgan. Shuning uchun ham "Savodi ta'lim" asari yozilgan. Munis Xorazmiy yosh avlod qiynalmasdan o'qishni va yozishni o'rganishlari ular yaxshi savod olishlari kerak ekanligi haqida o'ylagan. "Savodi ta'lim" asari barcha ehtiyojlar natijasida yaratilgan asar, bu asarning asosiy maqsadi

Boshlang'ich savod o'rgatish jarayonini soddalashtirish,

Yozuvni bosqichma- bosqich o'rgatish,

Husnixat madaniyatini rivojlantirish,

O'quvchilarni ilm va odobga yo'naltirishdan iborat bo'lgan.

Mazkur asar o'z davrida maktablarda keng qo'llanilgan o'quv qo'llanma sifatida amaliy ahamiyati katta bo'lgan. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari husnixatga doir birinchi qo'llanma sifatida ishlatishgan. Munis o'z davrining yetuk murabiy shoiri hamda bolalarning savodxonligini va husnixatini yaxshilash yo'lida ko'p izlangan va yosh avlodga husnixatdan ta'lim bergan, "bilgancha surib qalamni har yon, ta'lim ishin aylar erdi oson" deb yozib qoldirgan. "Bilimning eshigi alifbe" deganlaridek, Munis ham ta'limdagi mavaffaqiyatlarning garovi savod ekanligini tushunadi va shuning uchun "umumiy arqom" yozuv ilmini yaratishga kirishgan. "Savodi ta'lim" asari shu tarzda 1804-yil 6-dekabrda vujudga kelgan asardir. Ushbu asar ikki qismdan iborat, birinchi qismida Xat- savod o'rgatuvchi risolalarning nuqson va kamchiliklarini asoslab bergan, ikkinchi qismida Arab alifbosidagi harflarning yozilish uslubi ma'rifiy didaktik jihatdan sodd qilib tushuntirib berilgan.

Munis Xorazmiy "Savodi ta'lim" asarida ilm-fan, maktab, o'quv-tarbiyaga doir fikr mulohazalarini yozib qoldirgan. Bu asarning birinchi qismida harf mashq qilishga tayyorgarlik masalasi, ikkinchi qismida xat mashqi va uning usullari haqida amaliy ishlarini bayon qilgan. "Savodi ta'lim" asari boshlang'ich savodini o'rgatishdagi asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bunda harf o'rgatishdan boshlab mustaqil yozuv gacha jarayonlarni yoritib bergan. Asarda arab alifbosidagi harflarning yozilishi, ularni bosh, o'rta va oxirgi shakllari va yozuvdagi

xususiyatlarini yozgan. Bu o'quvchilarga yozuv tizimini yaxshiroq tushunishiga yordam bergan. Asarda o'qitish jarayoni oddiydan to murakkabga qarab tashkil qilingan. Bu o'quvchilarning psixologik imkoniyatlariga mos keladigan va bilimni izchil egallashini ta'minlagan. Asarda o'qitish jarayonining harf, bo'g'in, so'z, matn, ketma-ketligida tashkil etishi didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lganini ifodalab beradi. Bu o'quvchilarning bilimni tizimli o'zlashtirishiga yordam bergan.

Munis Xorazmiy bu asarida faqat harflar yoki so'zlar emas balki unda bajarilishi kerak bo'lgan mashqlar ham bo'lgan. Mashqlar o'quvchilar mavzuni yaxshiroq tushunishiga va dars mobaynida faol ishtirok etishiga ham yordam bergan. Natijada o'quvchilar bilimlarni faqat qabul qilmay ular ham dars mobaynida amaliy faoliyat orqali o'zlashtirishlarini ham taminlagan. Harflar va yozuvlar namunalar orqali o'qitish ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirganini ko'rsatib bergan. Ushbu method orqali o'quvchilarning vizual xotiralarini faollashtirishga ko'maklashgan. Shoir o'z she'rlarida tarbiya masalalari zarurligini ta'kidlaydi. U insonga xos yuksak fazilatlarini ilm orqali tarbiyalash zarurligini ko'rsatib bergan. Munis kishilarni rostdo'ylik, mardlik, xalqchilik, do'stlik, vatanparvarlik va vafo ruhida eng birinchi, ilm orqali amalga oshirilishini aytgan. U bilimning qudrati kuch ekanligini ta'kidlaydi. U asarlari bilan tarbiya masalalariga katta e'tibor qaratadi. Uning didaktikasi insonni yuksak oliyanoblik, rostdo'ylik, halol, ilmga chanqoq, mehr oqibatli bo'lishiga ham ahamiyat bergan. "Savodi ta'lim" asarida husnixatga alohida e'tibor berishgan. Chiroyli yozuvga qo'yilgan talablar yoshlarga estetik did, aniqlik, tartibli va sabr kabi sifatlarini rivojlantirishga yordam bergan. Husnixat ta'lim jarayonida integratsiyalashuvi yozuvni faqat kommunikativ vositasi emas, balki madaniy-estetik hodisa sifatida talqin etishgan. Bundan qashqari, asardagi axloqiy g'oyalar yosh avlodning ma'naviy kamolotga yetishiga ham xizmat qilgan. Bu esa ta'lim-tarbiya boring tamoyillining amalga oshirganligini ko'rsatib beradi. "Savodi ta'lim" asari o'zbek pedagogika tarixida boshlang'ich savod o'rgatish metodikasining yozma namunasi sifatida muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki "Savodi ta'lim" asari boshlang'ich savod o'rgatish metodikasini tizimlashtirgan muhim didaktik manba hisoblanadi. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari XIX asr ta'lim tizimida savod o'rgatishning samarali vositasi bo'lgan muhim didaktik qo'llanmadir. Asarda bosqichlilik, amaliy mashqlar, ko'rgazmalilik hamda ta'lim tarbiya muhim o'rin egallagan. Mazkur asar savod chiqarish metodini rivojlantirish bilan birga, yoshlarni manaviy axloqiy kamolotga erishishiga ham xizmat qilgan. Shuning uchun "Savodi ta'lim" asari milliy pedagogik tafakkur rivojida muhim ahamiyatga ega asarlardan biri hisoblanadi. Bu asar faqat oldingi davrdagi yoshlar uchun emas balki bugungi kun, bizdan keyingi avlodlar uchun ham poydevor bo'lgan asar desak adashmaymiz. Hozir biz o'qishni, yozishni bilamiz o'rganayotganimizda ham uncha qiynalmaganmiz desak

adashmaymiz. Bizdan oldin yashab o'tgan bobolarimiz biz o'qimishli bo'lishimiz uchun juda qattiq harakat qilishgan. Bu asar insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega asar. O'sha davrda Munis Xorazmiy barcha yoshlar ilmi bo'lishi va hayot yo'llarida qoqilmasliklariga yordam bergan. Ushbu asar yordamida ko'plab o'quvchilar savod olishgan, ilm o'rganishgan. O'qishni, yozishni ham o'rganishgan. Bular inson hayotida juda muhim omillardan hisoblanadi. Bu asar orqali o'quvchilar oldin harflarni keyin so'zlarni o'rganishgan. Undan so'ng ularni o'qishni va yozishni o'rganishgan. Bundan ko'rinib turibdiki bu asar insonlarni yuksaltirishga, ilm-ma'rifatga erishishiga yordam bergan dastlabki asar desak adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Munis Xorazmiy "Savodi ta'lim" – Elektron manba: Ziyonet ta'lim portali.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ УЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.

11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.
13. Умнов, Д. Г., Кариёв, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. *Перспективы науки и образования*, (6 (72)), 420-436.
14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. *Science and Education*, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY*, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique.-2022.-S*, 7128-7131.

25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.

26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 92-94.

27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.